

ISSN: 3030-3877

AJCD
2024

<https://tadqiqot.uz/index.php/spjacd>



Annals of clinical disciplines



VOLUME 2, ISSUE 3/1

2025

ISSN 3030-3877

DOI Journal 10.26739/3030-3877

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE


2 ЖИЛД, 3/1 СОН

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

ТОМ 2, НОМЕР 3/1

КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

VOLUME 2, ISSUE 3/1



ТОШКЕНТ-2025

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН | КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

№3/1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/0000-0000-2025-3/1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

Sh. J. Teshayev

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharriri, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

D. A. Xasanova

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya kafedrası professori, DSc

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- **U.K. Abdullayeva** - “Klinik fanlar yilnomasi” jurnali mas'ul kotibi, Buxoro davlat tibbiyot instituti fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası dotsenti, DSc;
- **M.J. Sanoyeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti nevrologiya kafedrası dotsenti, DSc
- **A.G. Gadayev** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrası professori, t.f.d.
- **A.R. Obloqulov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **D.A. Nabiyeva** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **Sh.T. O'roqov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti xirurgik kasalliklar kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **M.M. Karimov** - Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “Gastroenterologiya” ilmiy laboratoriyasi boshlig'i, t.f.d., professor
- **N.U. Narzullayev** - Buxoro davlat tibbiyot instituti otorinolarinologiya kafedrası professori, DSc
- **G.N. Sobirova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrası professori, t.f.d.
- **F.S. Raupov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgik kasalliklari kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **Sh.B. Axrorova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, nevrologiya kafedrası dotsenti, DSc.
- **V.R. Akramov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **I.K. Sadullojeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari propedevtikasi va bolalar nevrologiyasi kafedrası mudiri, DSc, dotsent

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

- **G.J. Jarilkasinova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash kafedrası professori, DSc
- **U.S. Mamedov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **A.A. Saidov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası professori DSc
- **N.N. Karimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **U.K. Qayumov** - tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini oshirish markazi ichki kasalliklar kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **M.E. Raximova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrası dotsenti, t.f.d.
- **R.I. To'raqulov** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrası professori, t.f.d.
- **Ch.S. Pavlov** - I.M. Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti terapiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **L.B. Novikova** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrası professori, t.f.d.
- **O.I. Letyayeva** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrası professori, t.f.d.
- **I.V. Reverchuk** - I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti psixonevrologiya va psixosomatika kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **Edip Gonullu** - Izmir Bakirchay universiteti anesteziya va reanimatsiya kafedrası dotsenti, t.f.d.
- **Eva Lietto** - Italiya Campania universiteti “Luigi Vanvitelli”ning tarjima tibbiyot fanlari kafedrası mudiri, t.f.d., professor

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 369/6 от 5 апреля 2025 г.

© Page Maker | Верстка | Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

О журнале

Журнал зарегистрирован в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан
№ С-239963 от 14 марта 2024 года

Адрес редакции: Республика Узбекистан, 200114,
г. Бухара, ул. Гиждуван, 23
Телефон: +998(65)2230050
Сайт: <https://tadqiqot.uz/index.php/spjacd>
e-mail: abumkur14@gmail.com

1. Abdullayeva U.K., Rakhimova M.B.	
Pomegranate seed oil for ulcerative colitis.....	7
2. Abdurakhmonova Q., Rakhimbaeva G.	
Inflammatory biomarkers and insulin resistance in acute ischemic stroke of different etiologies...	12
3. Boymuradov Sh.A., Khatamov U.A.	
Biomechanical and clinical analysis of atypical counterforces in maxillofacial trauma from electromechanical impacts.....	19
4. Baymuratova A.Ch.	
Tizza bo'g'imi ichki strukturalari jarohatlanishlarini utt orqali klinik baholash va fizioterapevtik reabilitatsiyani optimallashtirish	26
5. Boboyev Sh.R., Saidov G.N., Keldiyorova Z.D.	
Tajribaviy oshqozon-ichak traktining sirka kislotasi bilan kimyoviy kuyishida yo'g'on ichak devoridagi morfologik o'zgarishlarning qiyosiy tavsifi.....	32
6. Jumaeva G.A.	
Klinik farmakologiyada innovatsion o'quv modeli: talaba markazli yondashuv.....	38
7. Keldiyorova Z.D., Zaripova S.O.	
O'tkir respirator virusli infeksiyalar va torch- infeksiyasi bilan kasallangan bolalarda klinik-laborator o'zgarishlar.....	43
8. Khalikova F.Sh.	
Morphological structure of the thyroid gland of white rats in chemotherapy of breast cancer.....	51
9. Mirzayeva M.R., Yodgorova M.Sh.	
Latent course of liver fibrosis in patients with chronic hepatitis B: comparative evaluation of noninvasive diagnostic methods (APRI, FIB-4 and fibroscan).....	58
10. Muradimova A.R., Madjidova Y.N., Khidoyatova D.N., Sharipov F.R.	
Bioacoustic correction of cognitive impairment in stroke patients.....	69
11. Najmutdinova D.Q., Ismoilova Sh.S.	
2-tur natriy-glyukoza kotransportyori ingibitorlarini qo'llashda jigar fibroz ko'rsatkichlari va insulinga rezistentlik dinamikasi.....	74
12. Nazirxujayev F.A.	
Farg'ona viloyati aholisi orasida "O'rta yer dengizi parxezi"ni qo'llash orqali surunkali pankreatit xurujlari profilaktikasini optimallashtirish.....	79
13. Nurmatova O.A.	
Bolalarda nefrotik sindromning profilaktikasini takomillashtirish yo'llari (Farg'ona viloyati misolida).....	84
14. Ortiqboev J.O.	
Molecular genetic analysis of the renin–angiotensin system in chronic kidney disease.....	89

15. Oxunova M.J.	
Farg'ona viloyatida 3 yoshgacha bolalarda pnevmoniya rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy xavf omillari.....	95
16. Rasulova N.R. Temirova N.R.	
Tajribaviy kimyoterapiya natijasida ayrisimon bezdagi morfologik o'zgarishlarning qiyosiy tahlili.....	99
17. Raxmatullayeva G.K., Axmedova N.A., Kasimova M.B., Xudayberganova N.X.	
Oshqozon-ichak kasalliklarida so'rovnomaga o'tkazish va uni o'rganish.....	108
18. Subkhanova Z.S., Raimkulova N.R.	
Interrelationship between gastroesophageal reflux disease and respiratory diseases: general pathogenetic mechanisms and modern research findings.....	112
19. Subxanova Z.S., Raimkulova N.R.	
Gastroezofageal reflyuks kasalligi, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi va bronxial astma: komorbidlikning dolzarb masalalari.....	115
20. Temirova M.B., Kasimova M.B., Axmedova N.A.	
Metabolik assotsirlangan jigar yog' kasalligida bemorlarning tana tuzilishini bioimpedance spektroskopiyaga yordamida baholash.....	118
21. Tukhtaeva N.Kh., Musayev H.N.	
Development of gastropathy against the background of nonsteroidal anti-inflammatory drugs in patients with rheumatoid arthritis against the background of virulent genes of helicobacter pylori.....	123
22. Абдуллаева У.К., Рахимова М.Б.	
Ярали колит хавф омиллари: замонавий қарашлар.....	128
23. Абдулхаков И.У., Абдулхаков М.И.	
Общеврачебная практика как эффективная модель профилактики неинфекционных заболеваний.....	132
24. Адизова С.Р., Носирова З.Ж.	
Преэклампсия оғирлашувида гемостаз тизимининг таъсири.....	143
25. Акрамов О.З., Аблязов О.В., Кадыров Ш.У.	
Инновационные подходы нейровизуализации при опухолях функционально важных участков мозга у детей.....	149
26. Аликулова Н.А., Ўринова Г.М.	
Мия инфаркти ва СМИ ўтказган беморларда клиник-функционал кўрсаткичлар динамикаси.....	156
27. Алимов А.А., Алимов А.В., Шарипов А.М., Шоикрамов Ш.Ш.	
Профиль инотропной поддержки у детей после коррекции врождённых пороков сердца: частота, дозы и динамика применения.....	166
28. Аллокулов Р.Р., Акрамов В.Р., Нуралиев Ф.Н.	
Кекса ва қари ёшдаги шахсларда гонартрознинг клиник-иммунологик жиҳатлари.....	172

29. Асадов Х.Ф.

Хирургия мигрени: сравнительный анализ двух хирургических методик лечения височной мигрени: нейроэктомия и декомпрессия ветви скуловисочного нерва.....182

30. Аскарров Ш.Ш., Салахитдинов Ш.Н.

Перспективные интервенционные технологии при тромботических осложнениях острого коронарного синдрома.....187

31. Гадаев А., Халимова Х., Гадаева Н.

Ўпканинг сурункали обструктив касаллиги ва артериал гипертензияда буйраклар дисфункцияси (адабиётлар шархи).....193

32. Гаффорова В.Ф., Ходжиева Д.Т.

Клинико-нейрофизиологические характеристики фебрильных судорог у детей.....200

33. Давлетова Ш.Б.

Роль микробиоты кишечника в развитии неврологических заболеваний у детей.....205

34. Даминов Б.Т., Ортикбоев Ж.О.

Уровень витаминов группы В и витамина Д у больных с хронической болезнью почек в зависимости от прогрессирования заболевания.....216

35. Джураев И.Б., Курбанов О.М., Бабаназаров У.Т.

Клинические проявления патологий желудка у больных в критическом состоянии в условиях искусственного дыхания.....221

36. Жалалова В.З.

Оптимизация восстановительных процессов при физических нагрузках с помощью спирулины: морфофункциональные и клинические аспекты.....229

37. Ибодуллаева Н.М.

Бачадон саратон олди касалликлари бўлган аёлларда неврологик ва психоэмоционал ўзгаришларнинг психосоматик жиҳатлари.....237

38. Иноятлов А.Ш., Ражаматов Т.Р., Умаров Б.Я.

Функциональная и иммунологическая обоснованность применения щечного жирового лоскута при палатопластике в детском возрасте.....241

UDK 616.613-053.2

Nurmatova Oltinoy Alixo'ja qiziFarg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston
ORCID 0009-0002-8286-9035**BOLALARDA NEFROTİK SINDROMNING PROFILAKTIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)** <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17352491>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada bolalarda uchraydigan nefrotik sindromning klinik xususiyatlari, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda Farg'ona viloyati misolida profilaktika choralarini takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Hududiy iqlimiy sharoit, infeksiyon kasalliklar tarqalishi, ovqatlanish odatlari va ijtimoiy gigiyenik omillarning kasallik rivojlanishidagi o'rni o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, profilaktika choralarini kompleks ravishda amalga oshirish bolalarda nefrotik sindromning kechishini engillashtirish va qaytalanishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: nefrotik sindrom, bolalar, Farg'ona viloyati, klinik ko'rinishlar, profilaktika, iqlim o'zgarishlari, ijtimoiy-gigiyenik omillar.

Нурматова Олтиной Алихўжа кизи

Ферганский медицинский институт общественного здоровья, Фергана, Узбекистан

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФИЛАКТИКИ НЕФРОТИЧЕСКОГО
СИНДРОМА У ДЕТЕЙ (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ)****АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются клинические особенности нефротического синдрома у детей, факторы, влияющие на его развитие, а также пути совершенствования профилактических мер на примере Ферганской области. Изучена роль региональных климатических условий, распространенности инфекционных заболеваний, пищевых привычек и социально-гигиенических факторов в развитии заболевания. Согласно результатам исследования, комплексная реализация профилактических мероприятий способствует облегчению течения нефротического синдрома у детей и снижению частоты его рецидивов.

Ключевые слова: нефротический синдром, дети, Ферганская область, клинические проявления, профилактика, изменения климата, социально-гигиенические факторы.

Nurmatova Oltinoy Alikhoja qizi

Fergana Medical Institute of Public Health, Fergana, Uzbekistan

WAYS TO IMPROVE THE PREVENTION OF NEPHROTIC SYNDROME IN CHILDREN (EXEMPLIFIED BY FERGANA REGION)

ABSTRACT

This article analyzes the clinical features of nephrotic syndrome in children, the factors influencing its development, and the ways to improve preventive measures, using the Fergana region as an example. The role of regional climatic conditions, the prevalence of infectious diseases, dietary habits, and socio-hygienic factors in the development of the disease was studied. According to the study results, the comprehensive implementation of preventive measures helps to alleviate the course of nephrotic syndrome in children and reduce the frequency of its relapses.

Keywords: nephrotic syndrome, children, Fergana region, clinical manifestations, prevention, climate changes, socio-hygienic factors.

Kirish. Bolalarda nefrotik sindrom (NS) pediatriyada eng ko‘p uchraydigan glomerulyar kasalliklardan biri hisoblanadi. U proteinuriya, gipoalbuminemiya, giperlipidemiya va shish bilan namoyon bo‘lib, bolaning hayot sifatiga sezilarli darajada ta‘sir qiladi [1,2]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, bolalarda NS 100 ming aholiga 2–7 ta yangi holatni tashkil etadi va ko‘pincha 2–10 yosh oralig‘ida kuzatiladi [3]. Kasallikning surunkali va qaytalovchi xususiyati uning davolashini murakkablashtiradi, uzoq muddatli kuzatuv va profilaktik choralarni talab qiladi [4].

Adabiyotlarda qayd etilishicha, NS rivojlanishida turli etiologik omillar ishtirok etadi: virus va bakterial infeksiyalar, allergik kasalliklar, genetik moyillik, autoimmun mexanizmlar va atrof-muhit sharoitlari [5,6]. O‘tkir respirator va streptokokk infeksiyalari relapslarni tez-tez qo‘zg‘atadigan asosiy xavf omillari sifatida qayd etilgan [7]. Shu bilan birga, bolalarning ovqatlanish odatlari, gigiyenik sharoit va psixo-emotsional stress ham kasallik rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan [8].

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan klinik tadqiqotlarda NS bilan bog‘liq qaytalanuvchan shakllar 60–70% gacha etishi, 20–30% hollarda esa kortikosteroidlarga chidamlilik kuzatilishi aniqlangan [9]. Bu esa davolash jarayonini murakkablashtiradi va immunosuppressiv terapiyani qo‘llash zaruratini tug‘diradi. Shu bois profilaktika masalasi klinik amaliyotda yanada dolzarb hisoblanadi.

Profilaktika yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar quyidagilarni ko‘rsatadi:

- **Infektsion nazorat** – ORVI va streptokokk infeksiyalarini erta aniqlash relapslarni kamaytiradi [10];
- **Ovqatlanish gigiyenasi** – oqsilga boy, vitamin va minerallarga ega, ammo tuzi cheklangan ratsion kasallik kechishini engillashtiradi [11];
- **Immun tizimni mustahkamlash** – chiniqtirish, sport va vaktsinatsiya kasallik qaytalanishini sekinlashtiradi [12];
- **Dispanser nazorati** – muntazam laborator va klinik tekshiruvlar asoratlarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi [13].

Xorijiy mualliflar (A. Bagga, 2005; Gipson D.S., 2009) ta’kidlaganidek, kompleks profilaktika choralarni amalga oshirish NS bilan og‘rigan bolalarda shifoxonaga qayta yotqizish hollari sonini 1,5–2 baravarga kamaytirgan [14,15]. Mahalliy tadqiqotlarda (Nurmatova O., 2023) esa Farg‘ona viloyati sharoitida ekologik va infeksiion omillar yuqoriligi sababli, profilaktika tadbirlarini yanada kengaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan [16]. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalarda nefrotik sindrom rivojlanishiga ko‘plab ichki va tashqi omillar ta‘sir qiladi. Profilaktika choralarni kompleks tarzda amalga oshirish esa kasallikning og‘ir kechishi va qaytalanish chastotasini sezilarli kamaytiradi. Farg‘ona viloyati sharoitida ekologik omillar, yuqori darajadagi respirator infeksiyalar tarqalishi hamda bolalarda immun tizimining

zaifligi kasallikning rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shu bois profilaktika tadbirlarini takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Tadqiqot materiali va usullari. 2022–2024 yillarda Farg‘ona viloyati bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi nefrologiya bo‘limiga murojaat qilgan 3–18 yoshli nefrotik sindrom tashxisi qo‘yilgan 120 nafar bola kuzatildi. Tadqiqotda klinik-anamnestik, laboratoriya, instrumental hamda statistik usullar qo‘llanildi. Profilaktik tadbirlarning samaradorligi maxsus ishlab chiqilgan kuzatuv kartalari orqali baholandi.

Natijalar va muhokama. 1. Kasallik rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar. Infektsion kasalliklar – O‘tkir respirator virusli infeksiyalar va streptokokk etiologiyali kasalliklar NS rivojlanishida asosiy xavf omili bo‘lib qayd etildi (jadval 1). Iqlimiy sharoit – Bahor va kuz mavsumlarida kasallik qaytalanishi yuqori bo‘ldi. Ovqatlanish odatlari – Bolalarda tuzli va oqsilga boy mahsulotlardan noto‘g‘ri foydalanish relapslarni tezlashtirishi aniqlandi. Ijtimoiy-gigiyenik omillar – Oilaviy sharoit, sanitariya gigiyena qoidalariga amal qilmaslik ham kasallik kechishiga ta‘sir ko‘rsatdi. Shuningdek kasallik qaytalanishi fasllar bilan bog‘liq bo‘lib bahor va kuz fasllarida qayta murojaatlar soni oshgani kuzatildi.(rasm 1)


Jadval 1

Nefrotik sindrom qaytalanishiga olib keluvchi omillar

Omillar	Bemorlar soni (n=120)	Ulushi (%)
O‘tkir respirator infeksiyalar	65	54.1
Streptokokk infeksiyalari	28	23.3
Allergik kasalliklar	15	12.5
Stress va ovqatlanish omillari	12	10.1

Rasm1

Kasallik qaytalanishining fasllar bo‘yicha taqsimoti



2. Profilaktika choralari takomillashtirish yo‘llari: Infektsion nazorat: maktabgacha ta‘lim muassasalarida va maktablarda o‘tkir infeksiyalarni erta aniqlash va davolash. Ovqatlanish gigiyenasi: bolalar uchun tuz va yog‘ni cheklash, oqsilga boy, vitamin va minerallarga ega muvozanatli ratsionni joriy qilish. Immun tizimni mustahkamlash: sport, chiniqtirish, profilaktik vaksinatsiya tadbirlarini kuchaytirish. Tibbiy dispanser nazorati: NS bilan og‘rigan bolalarni muntazam kuzatib borish, yilda kamida 2–3 marta laborator tahlil topshirishni yo‘lga qo‘yish. Ota-

onalarni xabardor qilish: kasallikning ilk belgilarini aniqlash, dori vositalaridan to'g'ri foydalanish, shoshilinch tibbiy yordamga murojaat qilish ko'nikmalarini oshirish.(jadval 2)

Jadval 2


Kompleks profilaktika choralari samaradorligi

Profilaktika turi	Tadbirlar	Natija
Infeksion nazorat	ARVI va streptokokk infeksiyalarini erta aniqlash	Qaytalanish 40% ga kamaydi
Ovqatlanish gigiyenasi	Tuzni cheklash, vitaminlarga boy ratsion	Shishlar soni kamaydi
Immun tizimni mustahkamlash	Sport, chiniqtirish, vaktsinatsiya	Kasallik og'ir shakllari kamaydi
Dispanser kuzatuv	Yiliga 2–3 marta laborator tekshiruv	Shifoxonaga yotqizish hollari kamaydi
Ota-onalarni xabardor qilish	Ma'rifiy seminar va bukletlar	Erta murojaatlar soni ortdi

3. Profilaktika samaradorligi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, yuqoridagi kompleks choralar qo'llanilganda qaytalanish chastotasi 28,4% dan 14,2% gacha kamaygan, kasallik kechishi engilroq bo'lgan, shifoxonaga yotqizish hollari esa 1,7 marta qisqargan.

Rasm 2.

Profilaktika qo'llashdan oldin va keyin qaytalanish chastotasi



Xulosa. Farg'ona viloyati misolida o'tkazilgan tadqiqotlar bolalarda nefrotik sindrom rivojlanishi va qaytalanishiga turli etiologik hamda ijtimoiy-gigiyenik omillar ta'sirini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'tkir respirator infeksiyalar, streptokokk etiologiyali kasalliklar, noto'g'ri ovqatlanish va iqlimiy sharoit kasallikning asosiy qo'zg'atuvchilari sifatida aniqlangan. Ayniqsa, bahor va kuz fasllarida kasallik qaytalanishi yuqoriligi mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarda nefrotik sindrom profilaktikasini samarali tashkil qilish nafaqat kasallikning og'ir klinik shakllarini kamaytiradi, balki bolalarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi, hayot sifatini oshiradi va sog'liqni saqlash tizimida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Umuman olganda, nefrotik sindrom profilaktikasini hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirish mintaqaviy sog'liqni saqlash amaliyotida ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Farg'ona viloyatida olingan natijalar boshqa hududlar uchun ham qo'llash mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ганиева М. Ш., Нурматова О. А., Хайдарова Л. Р., Болтабоева М. М. Особенности течения нефротического синдрома у детей различного возраста и его клинические проявления у детей андижанской области // Экономика и социум. 2024. №2-1 (117). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-techeniya-nefroticheskogo-sindroma-u-detey-razlichnogo-vozrasta-i-ego-klinicheskie-proyavleniya-u-detey-andizhanskoy> (дата обращения: 10.09.2025).
2. Oltinoy, Nurmatova. "The importance of early detection of nephrotic syndrome in children." innovative developments and research in education 4.38 (2025): 293-295.
3. Nurmatova, Oltinoy. "Bolalardagi nefrotik sindromning yoshga xos klinik belgilari." Профилактическая медицина и здоровье 3.3 (2024): 1-6.
4. KDIGO Clinical Practice Guideline for Glomerulonephritis. Kidney International Supplements. 2012.
5. Bagga A., Mantan M. Nephrotic syndrome in children. Indian J Med Res. 2005.
6. Gipson D.S., Massengill S.F., et al. Management of childhood nephrotic syndrome. Pediatrics. 2009.
7. Farg'ona viloyati sog'liqni saqlash boshqarmasi statistik byulleteni, 2023.
8. Nurmatova O. Age-related clinical and laboratory indicators of nephrotic syndrome in children. Monograph. 2023

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН
КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

Научно-практический журнал по всем
направлениям медицины
основан в 2024 году

Бухарским государственным
медицинским институтом

Выходит один раз в 3 месяца

Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт